



OSIYO XALQARO
UNIVERSITETI



OSIYO XALQARO UNIVERSITETI AXBOROTNOMASI

Ilmiy-nazariy va metodik jurnal
Научно-теоретический и методический журнал
Scientific theoretical and methodical journal

2025, №5

EDITION 5

<https://scientificjournal.uz/>

Mundarija:

10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI

1	Haqqulova Dilshoda Abduvasiyevna. Abdurahmon Go'zal Navoiy ijodiyoti tadqiqotchisi va targ'ibotchisi	8
2	Haydarova Gulbahor Shokir qizi. Boshlang'ich sinfda ijodiy insholardan foydalanish	15
3	Bazarov Sodiq Mirkarimovich. Badiiy asar ustida ishlashning tarbiyaviy-estetik ahamiyati	21

13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI

4	Э.Ф.Киреева. Культурологические аспекты поликультурной коммуникации	27
5	Сафарова Дилафруз. Формы методы и приемы принципа толерантности, применяемые в социально-педагогической деятельности	32
6	Esonaliyeva Zumradxon Yusubjon qizi. Benefits of differentiation method in teaching	40
7	Xudaykulova Shaxlo Mamaniyazovna. Bo'lajak o'qituvchilarda axloqiy qarashlarni shakllantirishning pedagogik jarayondagi ahamiyati	46
8	Fayzieva Zarifa Xikmatovna. Qattiq jismlar fizikasini o'qitishda innovatsion texnologik yondashuv	53
9	Батирова Маърифат Хомидовна. Проектное обучение в преподавании английских деловых терминов: преимущества и проблемы	61
10	Матякубова Феруза Эгамовна. Значимость педагогических технологий в преподавании инфекционных болезней в вузе	69
11	Muminova Dilnavoz Komilovna. Bo'lajak o'qituvchilarning "Data Science" yo'nalishidagi tadqiqotchilik ko'nikmalarini rivojlantirish yo'llari	75
12	Sabirova Nasiba Rasulovna., Sobirova Mohira Rasulovna. Sport musobaqalarida sportchilarning psixologik tayyorgarlik va neyropsixik tiklanishini boshqarish	81
13	Жумаева Феруза Сайидовна. Педагогические основы использования дидактических игр для предоставления учащимся экономических знаний в цифровой среде обучения	88
14	Olimov Temir Hasanovich. Hamkorlik pedagogikasida texnologiyalardan foydalanishning mazmuni va ahamiyati	95
15	Saidov Sanjar Fatulloyevich. Ta'limda sun'iy intellektdan foydalanish va uning kelajakdagi rivojlanish yo'nalishlari	103
16	Qo'ziyeva Feruza Ismoilovna. Raqamli texnologiyalar davrida maktab o'quvchilari jismoniy faolligini oshirishning o'ziga xos jihatlari	114
17	Temirov Abdumalik Ikromovich. Oliy ta'lim tizimida tarbiyaviy ishlarni tashkil etishning samarali usullari	120

18	Lukmonova Salomat Gafurovna. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini raqamli kompetensiyalarga tayyorlashda zamonaviy yondashuvlar	126
19	Hamroyeva Sanobar Hasan qizi. Zamonaviy innovatsion texnologiyalarning turlari va ularning tibbiy-texnik tafakkurini shakllantirishdagi o'rni	133
20	Turanova Nihola. Globallashuv jarayonida yoshlarda prokrastinatsiya muammosi	141
21	Hamroyev Rustam Rasulovich. Informatika fanini o'rgatishda innovatsion metodlardan foydalanish	146
22	Rahmonova Xurshida G'aybullayevna. Fizikadan masalalar yechishda interaktiv va amaliy metodlarning roli	155
23	Gaybulova Gulnora Sadullayevna. Fizika o'qitishning metodik asoslari va ta'lim jarayonidagi ahamiyati	165
24	Shukuriva Madina O'ktamovna. Bola nutqini o'stirishda interfaol usullarning roli va ahamiyati	174
25	Toshpo'latova Shaxnoza Shuhratovna. Bo'lajak o'qituvchilarda tarixiy fikrlashni shakllantirishda psixologik yondashuvning roli.	179
26	Boltayeva Shahribonu Ahmad qizi. Interfaol o'qitish usullari va ularning mohiyati	185
27	Giyazova Nilufar Shoir qizi. Modern trends in utilizing management drivers to improve the quality of education in higher education institutions	194
28	Shermetov Atabek Ismoilovich. Axborot xavfsizligi madaniyatini shakllantirishda ta'lim va pedagogikaning o'rni	202
29	Qodirova Nargiza Odil qizi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida tanqidiy fikrlash qobiliyatini shakllantirish	210
30	Allayarov Otabek Erkinovich. Qadriyatlarining integratsiyasi asosida ta'lim tizimini takomillashtirishning dolzarb masalalari	217
31	Husinov Akobir Azam o'g'li. Tibbiyot universitetlarida zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llash	226
32	Xamrayev Botirjon Egamqul o'g'li. Tibbiyot yo'nalishidagi talabalarga dars berish jarayonidagi zamonaviy yondashuvlar	233
33	Xoliqov Abdullo Oynazarovich. Sun'iy intellekt va ta'lim: pedagogik imkoniyatlar	239
19.00.00 – PSIXOLOGIYA FANLARI		
34	Ulug'ova Shahlola Musliddinovna. Tadbirkorlarda shakllangan ijtimoiy maqomning o'ziga xos xususiyatlari	249
35	Olimov Laziz Yarashovich. Sud va tergov faoliyatida psixolog kompetentligini takomillashtirish	256
36	Jabborov Xazrat Xusenovich. Yoshlar xulq-atvorida milliy tarbiya namoyon bo'lishining ijtimoiy-psixologik omillari	268
37	Elov Ziyodullo Sattorovich. O'smirlar orasida suitsidga moyillikni aniqlash va korreksiya qilishning psixologik asoslari	280

SUD VA TERGOV FAOLIYATIDA PSIXOLOG KOMPETENTLIGINI TAKOMILLASHTIRISH



Olimov Laziz Yarashovich

Buxoro davlat universiteti professori,

Psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Annotatsiya:

KIRISH: Ushbu maqolada sud va tergov jarayonida psixolog kompetentligini takomillashtirishning o'ziga xos jihatlari nazariy hamda amaliy tadqiqi ochib berilgan bo'lib, sud psixolog eksperti va psixolog-mutaxassisning ijtimoiy-psixologik kompetentligi rivojlantiruvchi ijtimoiy-psixologik omillar, sud psixolog ekspertidagi kommunikativ, emotsional va shaxslilik komponentlarining namoyon bo'lishi va rivojlanishini tadqiq qilish; sud psixolog ekspertlarining sotsial-psixologik kompetentligini rivojlantirishda ularning sud-huquq tizimi bilan bog'liqligi ochib berilgan.

MAQSAD: sud va tergov faoliyatida psixolog kompetentligining ijtimoiy-psixologik jihatlari baholash orqali sud psixolog eksperti faoliyatida ijtimoiy-psixologik kompetentlik omillarining namoyon etilishini aniqlash va ularning kasbiy kompetentlik bilan o'zaro mutanosib rivojlanishi asosida amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

MATERIALLAR VA METODLAR: Zamonaviy psixologiyada sud psixolog ekspertlari ijtimoiy-psixologik kompetentligini takomillashtirish muammosini o'rganishga qaratilgan ilmiy tadqiqot ishlarini tahlil qilar ekanmiz, ulardagi kasbiy va ijtimoiy-psixologik kompetentlik metodologiyasiga aloqador bo'lgan ko'plab psixologik xususiyatlarni nazariy jihatdan izohlashga alohida e'tibor qaratdik. Bir qancha ilmiy adabiyotlarning tahliliga asoslanadigan bo'lsak, ijtimoiy-psixologik kompetentlikni aniqlashga doir tadqiqotchilar tomonidan turlicha yondashuvlar mavjudligini ko'ishimiz mumkin.

Ijtimoiy-psixologik kompetentlik jarayoni nafaqat ijtimoiy va tatbiqiy psixologiya, balki ko'pgina psixologiya fanlarining ham amaliyotda qo'llanilishida ko'rishimiz mumkin. Xuddi shunday kategoriya ilmiy adabiyotlarda o'z ifodasini topgan bo'lib, kasbiy faoliyat samaradorligiga faqat kompetentlik vositasi sifatidagi ijtimoiy-psixologik samaradorlik mezonini sifatida baholash uchun mukammal darajadagi yagona ilmiy metodologik ishlanma hali qabul qilinmagan.

Sud psixolog ekspertining ijtimoiy-psixologik kompetentligini o'rganish bo'yicha olib borilgan kuzatishlarimiz va tadqiqot muammosiga aloqador bo'lgan fundamental adabiyotlar tahlili ijtimoiy-psixologik kompetentlik muammolari bilan shug'ullanuvchi olimlarning qarashlariga alohida e'tibor qaratishni taqozo etadi.

Sud psixolog ekspertining ijtimoiy-psixologik kompetentligi deganda - sud psixolog ekspertining shunday kasbiy faoliyati nazarda tutiladiki, bunda yetarlicha yuqori darajada

amaliy kasbiy faoliyat, kasbiy muomalani amalga oshira olishi nazarda tutiladi. Ayni paytda, sud psixolog ekspertining ijtimoiy-psixologik kompetentligi uning kasbiy bilim va malakalari, boshqa bir tomondan esa kasbiy pozitsiyasi va psixologik sifatlari mutanosibligi bilan baholanishi mumkin.

XULOSA: Sud psixolog ekspertining u yoki bu insonlar bilan o'zaro adekvat munosabatga kirisha olishi, xususan, sudga oid psixologik ekspertizalarda yuqori darajada muloqotmandligi, muloqot vaziyatlarini tahlil etuvchanlik, suhbatdoshning xulq-atvori, hatti-harakatlari, ruhiy kechinmalariga nisbatan adekvat sezuvchanlik va turli xil vaziyatlarga nisbatan muayyan darajada moslashuvchanlik sifatlarning namoyon etilishi bilan xarakterlanadi.

Sud psixolog ekspertlarining ijtimoiy-psixologik kompetentligining namoyon etilishi, har bir sud psixolog ekspertida o'ziga xos tarzda shakllangan kasbiy va kommunikativ kompetentlik kabi omillarga bevosita bog'liqligi ijtimoiy-psixologik kompetentlik, kasbiy faoliyati samaradorligini belgilashga va shaxs barkamolligini ta'minlashga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: sud psixolog eksperti, ijtimoiy-psixologik kompetentligi, sud psixologik ekspertizasi, kasbiy kompetentlik, kompetentlik, emotsional intellekt, kasbiy faoliyat.

ПОВЫШЕНИЕ КОМПЕТЕНТНОСТИ ПСИХОЛОГОВ В СУДЕБНО-СЛЕДСТВЕННОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ

Олимов Лазиз Ярашович

*Профессор Бухарского государственного университета,
Доктор философии (PhD) по психологии*

Аннотация.

ВВЕДЕНИЕ. В данной статье раскрывается теоретическое и практическое исследование особенностей компетентности психолога в судебно-следственном процессе, выявляются социально-психологические факторы и компоненты, развивающие социально-психологическую компетентность и эмоциональный интеллект судебного психолога, коммуникативную компетентность, эмоционально-личностный характер судебного психолога, изучение проявления и развития его компонентов; в развитии социально-психологической компетентности судебных психологов раскрывается их связь с правовой системой.

ЦЕЛЬ: путем оценки конкретных сторон компетентности психолога в судебно-следственном процессе определить проявление факторов социально-психологической компетентности в деятельности судебного психолога и разработать практические рекомендации, основанные на их пропорциональном развитии с профессиональными. компетентность.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: Анализируя научные исследования, направленные на изучение проблемы проявления и развития социально-психологической компетентности судебных психологов-экспертов в современной психологии, необходимо теоретически осмыслить многие психологические характеристики, связанные с методологией профессиональной и социальной -психологическая компетентность на них мы обратили внимание. На основе анализа ряда научной

литературы мы видим, что существуют разные подходы исследователей к определению социальной и психологической компетентности.

Процесс социально-психологической компетентности мы можем видеть не только в социальной и прикладной психологии, но и в практике многих психологических наук. Подобная категория выражена в научной литературе, и до сих пор не принята единая научно-методическая разработка совершенного уровня, позволяющая оценивать эффективность профессиональной деятельности только как критерий социально-психологической эффективности как средства компетентности. Наши наблюдения по изучению социально-психологической компетентности судебного психолога и анализ фундаментальной литературы, связанной с проблемой исследования, требуют обратить особое внимание на взгляды ученых, занимающихся проблемами социально-психологической компетентности.

Под социально-психологической компетентностью судебного психолога-эксперта понимается профессиональная деятельность судебного психолога-эксперта, предполагающая способность осуществлять практическую профессиональную деятельность и профессиональное лечение на достаточно высоком уровне. При этом социально-психологическая компетентность судебного психолога может быть оценена по соразмерности его профессиональных знаний и умений, с другой стороны, его профессиональному положению и психологическим качествам.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ: Способность судебного психолога иметь адекватные взаимоотношения с тем или иным лицом, в частности, высокий уровень общения при судебно-психологических экспертизах, умение анализировать ситуации общения, адекватная чувствительность к поведению, действиям, психическим переживаниям собеседника и различным ситуациям, характеризующиеся проявлением качеств гибкости на определенном уровне.

Проявление социально-психологической компетентности судебных психологов-экспертов, прямая зависимость от таких факторов, как профессионально-коммуникативная компетентность, которая формируется уникальным образом у каждого судебного психолога-эксперта, служит определению социально-психологической компетентности, эффективности профессиональной деятельности. и обеспечить целостность личности.

Ключевые слова: судебный психолог-эксперт, социально-психологическая компетентность, судебно-психологическая экспертиза, профессиональная компетентность, компетентность, эмоциональный интеллект, профессиональная деятельность.

IMPROVING PSYCHOLOGIST COMPETENCE IN JUDICIAL AND INVESTIGATIVE ACTIVITIES

Olimov Laziz Yarashovich

*Professor of Bukhara State University,
Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology*

Annotation.

INTRODUCTION: This article reveals the theoretical and practical research of the specific aspects of the psychologist's competence in the judicial and investigative process,

the identification of the socio-psychological factors and components that develop the socio-psychological competence and emotional intelligence of the forensic psychologist, the communicative, emotional and personality of the forensic psychologist. study the manifestation and development of its components; in the development of socio-psychological competence of forensic psychologists, their relationship with the legal system is revealed.

GOAL: By evaluating the specific aspects of the psychologist's competence during the court and investigative process, it is to determine the manifestation of the socio-psychological competence factors in the activity of the court psychologist and to develop practical recommendations based on their proportional development with professional competence.

MATERIALS AND METHODS: Analyzing the scientific research works aimed at studying the problem of the manifestation and development of the socio-psychological competence of forensic psychologist experts in modern psychology, it is necessary to theoretically interpret many psychological characteristics related to the methodology of professional and socio-psychological competence in them. we paid attention. Based on the analysis of several scientific literature, we can see that there are different approaches by researchers to determine social and psychological competence.

We can see the process of social-psychological competence not only in social and applied psychology, but also in the practice of many psychological sciences. A similar category is expressed in scientific literature, and a single scientific methodological development of a perfect level has not yet been adopted to assess the effectiveness of professional activity only as a criterion of socio-psychological efficiency as a means of competence.

Our observations on the study of the socio-psychological competence of a forensic psychologist and the analysis of the fundamental literature related to the research problem require paying special attention to the views of scientists dealing with the problems of socio-psychological competence.

Socio-psychological competence of a court psychologist expert means the professional activity of a court psychologist expert, which implies the ability to perform practical professional activities and professional treatment at a sufficiently high level. At the same time, the socio-psychological competence of a forensic psychologist can be assessed by the proportionality of his professional knowledge and skills, and on the other hand, his professional position and psychological qualities.

CONCLUSION: The ability of a forensic psychologist to have an adequate relationship with one or another person, in particular, a high level of communication in forensic psychological examinations, the ability to analyze communication situations, adequate sensitivity to the interlocutor's behavior, actions, mental experiences and different situations characterized by the manifestation of the qualities of flexibility at a certain level. The manifestation of socio-psychological competence of forensic psychologist experts, the direct dependence on factors such as professional and communicative competence, which is formed in a unique way in each forensic psychologist expert, serves to determine socio-psychological competence, the effectiveness of professional activity and ensure the integrity of the individual.

Key words: forensic psychologist expert, socio-psychological competence, forensic psychological expertise, professional competence, competence, emotional intelligence, professional activity.

Zamonaviy psixologiyada sud va tergov jarayonida psixolog kompetentligini takomillashtirish mexanizmlariga doir ilmiy tadqiqot ishlarini tahlil qilar ekanmiz, ulardagi kasbiy kompetentlik metodologiyasiga aloqador bo'lgan ko'plab psixologik xususiyatlarni nazariy jihatdan izohlashga alohida e'tibor qaratdik. Bir qancha ilmiy adabiyotlarning tahliliga asoslanadigan bo'lsak, psixologning kompetentligini aniqlashga doir tadqiqotchilar tomonidan turlicha yondashuvlar mavjudligini ko'rishimiz mumkin

Psixologning mutaxassis va sud psixolog eksperti sifatidagi kasbiy kompetentligi deganda - ularning shunday kasbiy faoliyati nazarda tutiladiki, bunda yetarlicha yuqori darajada amaliy kasbiy faoliyat, kasbiy muomalani amalga oshira olishi nazarda tutiladi. Ayni paytda, psixologning kasbiy kompetentligi uning kasbiy bilim va malakalari, boshqa bir tomondan esa kasbiy pozitsiyasi va psixologik sifatlari mutanosibli bilan baholanishi mumkin.

Sud psixolog ekspertining kasbiy kompetentligini o'rganish bo'yicha olib borilgan kuzatishlarimiz va tadqiqot muammosiga aloqador bo'lgan fundamental adabiyotlar tahlili ijtimoiy-psixologik kompetentlik muammolari bilan shug'ullanuvchi olimlarning qarashlariga alohida e'tibor qaratishni taqozo etadi.

Kasbiy va ijtimoiy-psixologik kompetentlikning tuzilishini tashkil etuvchi komponentlar uning rivojlanish bosqichi bilan ham bog'liqligi kuzatiladi. R.Selman tomonidan olib borilgan izlanishlarda mazkur kompetentlikning rivojlanish bosqichlari tahlil qilingan. R.Selmanning kompetentlik konsepsiyasiga ko'ra, «u shaxsning ijtimoiylashuvi bilan bog'lab talqin etilgan. Ushbu nazariy yondashuv J.Piajening operatsional nazariyasi va A.L.Kolbergning axloqiy kamolot nazariyasi bilan bevosita bog'liqdir. Shuningdek, ijtimoiy kompetentlik ko'p o'lchamli, murakkab tuzilishi quyidagi jihatlardan iborat:

1. Kommunikativ – psixologik aloqalar va kommunikativ hamkorlikni ifodalovchi kommunikativ sifatlar integratsiyasi asosida shakllanadigan kompleks xususiyatlar;
2. Shaxs doimo o'zini-o'zi hurmat qilishga, yangi g'oyalarga moyilligi;
3. Ijtimoiy persepsiya, tafakkur, xayol, tasavvur, ijtimoiy hodisalarni, insonlarni va ularning harakatlantiruvchi motivlarini modullashtirish va tushunish qobiliyati;
4. Energetik tavsifi: psixik va jismoniy bardoshlilik, faollik yoki toliqqanlik [234].

Ko'rsatib o'tilgan sifatlar o'ziga xos tarzda namoyon bo'luvchi ijtimoiy-psixologik kompetentlikning muhim belgisi sifatida baholanadi. Sud psixolog ekspertlarida namoyon bo'ladigan kompetentlikning ko'pgina omillarini tahlil qilishda esa, ushbu sifatlarga alohida e'tibor qaratish kerakligidan dalolat beradi.

Bizningcha, kompetentlikning har qanday ko'rinishining namoyon etilishi va rivojlanishi bevosita shaxsning turli darajadagi ijtimoiy-psixologik omillarining bevosita ta'siri asosida belgilanar ekan. Tabiiyki, sud psixolog eksperti va uning ijtimoiy-psixologik va kasbiy imkoniyatlari kompetentlik istiqboliga xizmat qila oladi, deb baholashimiz mumkin.

Sudga oid psixologik ekspertizasiga doir tadqiqotlarda sud psixolog eksperti faoliyatiga aloqador turli jihatlarini, xususan: K.Marbe psixolog jinoiy va fuqarolik ishlarda ekspert sifatidagi ishtiroki, V.Shtern sud psixolog ekspertining jinsiy jinoyat ishlari yuzasidan yosh guvohlar ko'rsatmalarini baholash va ekspertiza qilinayotganlarning aqliy qobiliyatlarni aniqlashning psixologik usullarini, G.Gross esa kriminal psixologiya sohasiga doir ekspertiza o'tkazish mexanizmlarini ochib bergan.

Guvohlik ko'rsatmalarini tadqiq etish sohasida psixologik ekspertiza o'tkazish va boshqa muammolar bo'yicha tadqiqot ishlari amalga oshirilib, psixolog A.Luriya tomonidan 1927 yilda Moskva guberniya prokuraturasi qoshida tashkil qilingan amaliy psixologiya laboratoriyasida jadal tadqiqot ishlari olib borilgan. U yerda psixologik ekspertiza imkoniyatlarini kengaytirish va jinoyatlarni ochish uchun amaliy psixologiya usullarini qo'llash imkoniyatlari o'rganib chiqilgan.

Ta'kidlash joizki, amaliy psixologiyada yuridik amaliyot ehtiyojlari uchun uning qo'llanilishi asosan jinoiy jarayon ishtirokchilari ko'rsatmalarining haqiqiylikni aniqlash metodikalarini ishlab chiqish uchun qo'llanilgan. T.V.Saxnova yozishicha, bir tomondan qonunbuzar shaxsini o'rganib chiqishga e'tibor kuchayishidan darak bergan (ilgari u faqat qonunbuzarning o'zini o'rganilishida to'xtalgan), bu esa o'z navbatida, ob'ektiv va sub'ektiv tomonlarni inobatga olgan holda sodir etilgan qonunbuzarlikka aniq va to'g'ri baho berishga imkon bergan. Boshqa tomondan esa, jarayon (sodir etilgan holat) ishtirokchilarining ko'rsatmalarini haqiqiy ekanligini isbotlash uchun, ekspert sud yoki tergov jarayonida berilgan ma'lumotlar qay darajada haqiqiy ekanligini aniqlash bo'yicha vazifani o'z zimmasiga yuklatadi.

T.V.Saxnovaning fikricha, ekspertiza doirasida shaxsga tashxis qo'yish orqali haqiqatni aniqlash uchun qo'llanilgan. Respondentning erkin hikoyasi (o'zi bilan sodir bo'lgan holat yoki hodisa to'g'risida bildirgan fikrlari, yoki ko'rsatuvlari) va ekspert bergan savollarning javoblari asosida, ob'ektiv u yoki bu shaxs tipi bilan shartlangan, yolg'on belgilari mavjudligi (yoki mavjud emasligi) haqida xulosa qilinadi. Taxmin qilinishicha, sovuqqon, xo'mraygan va yopiq odamlar oldindan uylab qo'ygan yolg'onni aytishga tayyor bo'lishadi. Shuning uchun u bergan ko'rsatmalar ahamiyatli emas, deb baholash mumkin. Bajarilmagan istak-xohishlar majmui mavjud bo'lgan shaxsning ko'rsatmalari ham to'la haqiqiy deb tan olinmasligi mumkin, biroq boshqa sabablariga ko'ra: sub'ekt boshqalar nigohida o'z mavqeiga ega bo'lishi uchun, istaklarini qiziq tarzda amalga oshiradi. Bu turdagi ekspertizalar voyaga yetmagan guvohlarga nisbatan samaralidir. Bu borada shuni ta'kidlash joizki, o'sha paytda ishonchli, ilmiy asoslangan shaxsni tadqiq etish bo'yicha metodikalar ishlab chiqilmagan edi, shu tufayli ekspert vazifasini ob'ektiv tarzda hal etish imkoni bo'lmagan.

O'rganish jarayonida keltirilgan vajlarning haqiqiylikni aniqlash ekspertizaning asosiy kamchiligi sifatida bundan iborat bo'lmagan. Ko'rsatmalarning haqiqiylik haqida savolga javob berayotganda, ekspert-psixolog o'zining maxsus bilimlari chegarasidan, jarayondan tashqari, o'z vakolati doirasidan chiqib ketgan va sud vakolati chegaralariga kirgan. Rivojlanishining birinchi bosqichida sud ekspertizasi imkoniyatlariga vakolatidan ortiqcha baho berish, ehtimol qonuniydir, chunki amaliy psixologiya darajasi yuridik amaliyot ehtiyojlaridan ancha orqada qolgan edi. Bu esa o'z navbatida vazifalarni noto'g'ri, xato belgilashga va ularni yechish uchun vositalarni noadekvat tanlashga olib kelar edi.

Sud psixologik ekspertizaga huquqiy holatlarni aniqlash vazifasi yuklanib, faqatgina ko'rsatmalar haqiqiyliginigina tekshirish emas, balki ularni isbotlash, qonunbuzarlikni sodir etgan shaxs hatti-harakatlarida aybdorlikni aniqlash vositasi sifatida mustahkamligini tekshirish ham kiritilganligini ko'rishimiz mumkin. Garchi bunga asos bo'lmasa ham, qandaydir ishonchsizlik haligacha ham oxirigacha bartaraf etilmagan. Aksincha, qonuniy sud ishida mukammallashib borayotgan amaliyotning, o'sib borayotgan ehtiyojlari sharoitida, zamonaviy psixologiya fanining imkoniyatlariga yetarlicha baho bera olmaslik o'rinlidir.

Sud va tergov faoliyatida psixologning psixodiagnostik kompetentligii aniqlashga mo'ljallangan so'rovnoma olingan dastlabki matematik-statistik tahliliga o'tadigan bo'lsak, Fisherning F-qiymat mezonini bo'yicha «laboratoriya eksperimentini (modellashirish) qo'llay olishi» ($F=3,102$; $p \leq 0,05$), «umumiy rivojlanganlik darajasini (kognitiv, hissiy, xulqiy) baholay olishi» ($F=3,332$; $p \leq 0,05$), «psixodiagnostik yondashuv uslublarining o'zlashtirganlik darajasi (integrativ va sinergetik, nomotetik va ideogarfik yondashuv)» ($F=3,421$; $p \leq 0,05$) omillarida ahamiyatli statistik farqlar kuzatilgan bo'lsa, «ish hujjatlari bilan ishlash orqali ma'lumot olishi va rasmiylashtira olishi (hujjatli manbaalar tahlili, kontent tahlil, biogragik va boshqa hujjatlar)» ($F=2,011$; $p \leq 0,01$), «profayling usuli orqali ma'lumot olishi» ($F=2,214$; $p \leq 0,01$), «retrospektiv va germeneytik baholash» ($F=1,991$; $p \leq 0,01$), «kreativ va tanqidiy fikrlash darajasi» ($F=2,342$; $p \leq 0,01$) omilarida esa ishonchli farqlar kuzatilmadi.

So'rovnomaning birinchi «Ish hujjatlari bilan ishlash orqali ma'lumot olishi (hujjatli manbaalar tahlili, kontent tahlil, biogragik va boshqa hujjatlar)» omili bo'yicha tadqiqot ishimizga jalb qilingan respondentlarning natijalari orasida ishonchli statistik farq kuzatilmadi ($F=2,011$; $p \leq 0,01$). Voyaga yetmaganlar bo'yicha inspektor psixologlar birinchi kasbiy faoliyatlarida yuridik hujjatlar bilan muntazam ishlaganliklari tufayli ham boshqa ishtirokchilarga nisbatan yuqoriroq natijani qayd etilib o'rtacha darajadagi ko'rsatkichni qo'lga kiritishdi ($M_3=5,7$).

1-jadval

Sud va tergov faoliyatida psixologning psixodiagnostik kompetentligining namoyon bo'lishi

№	Psixodiagnostik kompetentlik omillari	O'rtacha qiymat						Statistik farq	
		OTM psixolog mutaxassisi (n=102)		Maktab amaliyotchi psixologi (n=110)		Inspektor-psixolog (n=98)		F-qiymat	p-qiymat
		M1	S1	M2	S2	M3	S3		
11	Ish hujjatlari bilan ishlash orqali ma'lumot olishi va rasmiylashtira olishi (hujjatli manbaalar tahlili, kontent tahlil, biogragik va boshqa hujjatlar)	5,1	1,06	3,4	2,31	5,7	1,21	2,011	0,01

22	Profayling usuli orqali ma'lumot olishi	5,7	2,03	6,2	1,98	6,3	1,55	2,21 4	0,01
33	Laboratoriya eksperimentini (modellash) qo'llay olishi	7,4	1,23	5,5	2,23	5,3	1,68	3,12 2	0,05
44	Umumiy rivojlanganlik darajasini (kognitiv, hissiy, xulqiy) baholay olishi	7,8	2,01	6,3	1,23	4,2	1,77	3,33 2	0,05
55	Psixodiagnostik yondashuv uslublarining o'zlashtirganlik darajasi (integrativ va sinergetik, nomotetik va ideogarfik yondashuv)	6,2	1,92	4,2	1,92	3,9	1,97	3,42 1	0,05
66	Retrospektiv va germeneytik baholash	4,8	0,78	3,3	1,03	4,0	1,42	1,99 1	0,01
77	Kreativ va tanqidiy fikrlash darajasi	5,1	1,53	3,4	1,82	4,5	2,09	2,34 2	0,02

Bizning nazarimizda ushbu omil bo'yicha OTM psixolog mutaxassislari yuqori darajadagi kompetensiyani namoyon qilishi kutilgan bo'lsada, ammo mutaxassislik kafedrasiga xodimlar almashinuvi sababli, ya'ni tajribali professor-o'qituvchilarning bir qismi nafaqaga chiqqanligi yoki boshqa ishga o'tganligi, shuningdek, yangi xodimlarning ishga qabul qilinganligi, ularning ikkinchi kasbiy faoliyatga endi jalb qilinish boshlanganligi boisdan o'rtacha darajadagi kompetentlikni namoyon qilishdi ($M1=5,1$). Bu borada uchinchi toifadagi ishtirokchilar hisoblangan maktab amaliyotchi psixologlari aynan bu borada kam vaziyatlarda ishlaganliklari boisdan past qiymatni namoyon etishdi ($M2=3,4$). Ishtirokchilar orasida yetarli kompetentlikka ega bo'lganlar bo'lishsada, umumiy o'rtacha qiymatdan past natijaga erishganlar bilan maxsus ishlarni bajarish lozimligini ko'rsatib turibdi.

Yuqorida ta'kidlab o'tganimizdek, zamonaviy psixologiyada keng tarqalgan, bizning psixodiagnostik tadqiqotlarda yaqin yillarda qo'llanila boshlangan profayling usuli sud va tergov faoliyatida ekspressiv axborot olish usuli sifatida yuqori samaraga egaligi bilan ahamiyatlidir.

Profayling inson xulq-atvorining verbal va noverbal, tashqi qiyofasi xarakteristikasi, eng muhim axborot beruvchi xususiy belgilarni tahlil qilish asosida inson xulq-atvorini baholash va prognoz qilishning psixologik metod va metodikalari majmuini ifodalovchi o'rganish usuli bo'lib, psixodiagnostik kompetentlikning ushbu omili bo'yicha ham differensial ahamiyatli statistik farq kuzatilmadi ($F=2,214$; $p \leq 0,01$). Bu borada ham voyaga yetmaganlar bo'yicha inspektor psixologlarning natijalari boshqa ishtirokchilarga nisbatan yuqori balni qayd etib umumiy o'rtacha qiymat o'rta darajadagi rivojlanganligini ko'rsatdi ($M3=6,1$). O'rganish davomida bu ko'rsatkichning qo'lga kiritilishi aynan voyaga yetmaganlar bilan ishlash bo'yicha kasbiy tajriba ta'sir ko'rsatganligi ayon bo'ldi. Ayniqsa, ayol xodimlarning voyaga yetmagan qizlar bilan muntazam ishlaganliklari (deviant xulqli qizlar sonining kundan-kunga oshib borayotganligi natijasida) nisbatan yaxshi namoyon bo'lganligi bilan izohlanadi. OTM psixolog mutaxassislari o'rtacha qiymatni ($M1=5,4$)

namoyon qilgan bo'lsa, maktab amaliyotchi psixologlarida esa bu imkoniyat hali talab darajasida rivojlanmaganligini ko'rishimiz mumkin ($M_2=4,2$).

Haqiqatdan ham oliy ta'lim muassasalarida tayyorlanayotgan psixologlarga o'qitilayotgan «Umumiy psixodiagnostika» fani dasturida profayling usuli yuzasidan alohida mavzu kiritilishi, usulni qo'llash texnikasi va texnologiyasini o'rgatishga mo'ljallangan alohida mavzu kiritilishi kerakligini ko'rsatdi. Qolaversa, maxsus dastur asosida ayni paytda faoliyat yuritayotgan psixologlarga yangi bilimlarni berish zarurati borligi tadqiqot ishimizning keyingi bosqichidagi muhim vazifalardan biriga aylanishini ta'minladi. Tajribamizga asoslanib shuni aytish mukinki, sud va tergov jarayoniga jalb qilinganlar jazodan qochish maqsadida oldindan beriladigan savollarga tayyorlanib kelishlari, fuqarolik ishlarida farzandni tomonlarga olib berish masalasida birga yashayotgan tomon bu jarayonga tayyorlab kelishlari holatlari juda ko'p marotaba takrorlanadi. Profayling usuli orqali bunga aniqlik kiritish (boshqa usullar orqali esa olingan natijalarga yanada ishonchlilikka erilishilishi qat'iy shart) oson va qulay ma'lumotga ega bo'linadi. Shundan kelib chiqib, odatda tayinlangan sud psixologik ekspertizalarda va mutaxassis sifatida ish jarayonida ishtirok etayotgan mutaxassis psixologlar oldiga hal qilish ushuni eng ko'p qo'yiladigan masala (savol)lardan biri jalb qilingan shaxsning yolg'on yoki rost ko'rsatuv berishiga aniqlik kiritish, mana shu masala borasida qiyinchiliklarga duch kelinmoqda va bu kechiktirib bo'lmaydigan, hal qilinishi zarur bo'lgan muammo hisoblanadi.

Laboratoriya eksperimentini (modellashtirish) qo'llay olishi omili orqali ishga jalb qilinganlarning obrazlarini modellashtirish imkoniyatlarining qay darajada rivojlanganligini baholashga mo'ljallangan bo'lib, jinoyat ishlarida gumonlanuvchi, jabrlanuvchi, guvohlarning sodir bo'lgan holat (hodisa) ga aloqadorligi, ayniqsa, gumonlanuvchi shaxsi to'g'risida kompleks tarzda axborot olishda uning modelini tuzish va shu asosda tegishli xulosa qilishga xizmat qiladi. Bu omilda kuchli ahamiyatli farqlar kuzatilganligini ko'rishimiz mumkin ($F=3,122$; $p \leq 0,05$). OTM psixolog mutaxassislarining ko'pchiligi bir necha yildan beri ish jarayonlariga bevosita ishtirok etib kelayotganliklari sababli yuqori natijaga erishishdi. Buning yana bir muhim sabablardan ilmiy tadqiqot ishlari bilan shug'ullanganliklari, qolaversa, ishtirokchilarning bir qismi psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori ilmiy darajasini olish uchun amalga oshirilgan dissertatsion tadqiqot ishimizda ishtirok etganliklari ham ijobiy ta'sir etganligi bilan izohlanadi ($M_1=7,4$). Maktab amaliyotchi psixologlari ($M_2=5,5$) va inspektor psixologlarining ($M_3=5,3$) ko'rsatkichlari o'rtasida deyarli tafovut kuzatilmagan bo'lishi bilan bir qatorda ularning ko'pchiligida past ball qo'lga kiritilganligi bu borada ham tegishli tartibda chora-tadbirlarni amalga oshirish zarurati borligini ko'rsatdi. Bu ikki guruh ishtirokchilarida asosiy kasbiy faoliyatlarida sud va tergov jarayoniga doir psixodiagnostik tadbirlarlarda ishtirok ekmaganliklari va bunday tajribaga ega emasliklari sababli ham muayyan qiyinchiliklar borligini ko'rsatdi.

Ko'rib chiqilayotgan ish yuzasidan tayinlangan sud psixologik ekspertizalarda ham, ishga jalb qilingan psixolog-mutaxassislar oldiga qo'yiladigan savollarda muhokama qilinadigan masalalardan yana bir o'rganilayotgan shaxsning umumiy rivojlanganlik darajasini aniqlash nazarda tutilib (kognitiv, hissiy, xulqiy), birlamchi eng zarur axborot olishni talab qiladi. Ayniqsa, umumiy rivojlanganligining norma yoki patologiyada

ekanligi, o'rganilayotgan masalaning aynan shu bosqichi keyingi savollarni muhokama qilinishi uchun ahamiyatli bo'lib, bunda psixiatrik tekshiruv natijalari ham inobatga olinishi lozimligi haqidagi bilimga ega bo'lishini talab qiladi. Bu omil bo'yicha otm psixolog mutaxassislari yuqori balni qo'lga kiritganliklari bu faoliyat bilan amalda shug'ullanganliklari samara berganligini qayd etish lozim ($M_1=7,8$). Boshqa ishtirokchilarda esa aynan ushbu jarayonlarga jalb qilinmaganligi, ilmiy jihatdan tajribaning yetarli emasligi ham qaysidir ma'noda ta'sir ko'rsatganliginini sabab sifatida aytish mumkin. Nisbatan maktab amaliyotchi psixologlarining o'quvchilar bilan muntazam ishlab kelayotganliklari ulardagi bu omil bo'yicha umumiy o'rtacha darajadagi rivojlanganligini ko'rsatdi ($M_2=6,3$). Inspektor psixologlari esa nisbatan past natijaga erishishdi ($M_3=4,2$). Guruh ishtirokchilari natijalaridagi statistik farq ahamiyatli bo'lib, $F=3,332$, $p \leq 0,05$ ga tengligini ko'rishimiz mumkin.

Psixodiagnostik yondashuv uslublarining o'zlashtirganlik darajasi (integrativ va sinergetik yondashuv,) masalasi ham sud va tergov amaliyoti doirasida amalga oshiriladigan psixodiagnostik tadbirlar uchun muhimligi bilan ajralib turadi. Ekspert va mutaxassis sifatida ishning psixologik tomonlarini ichki va tashqi tashkil qiluvchi belgilari (element)ni chuqur tahlil qilmasdan turib, voqea va hodisaning asl mohiyatini, aloqadorligi va bog'liqligiga adekvat baho berish imkoniyati pasayib ketadi. O'rganilayotgan ish (asosan fuqarolik va jinoyat ishlari)ga aloqador bo'lganlarning, ayniqsa gumonlanuvchi va jabrlanuvchi xulq-atvori, shaxslilik sifatlarining sodir bo'lgan hodisaga aloqasini baholash yuqori darajadagi kompetentlikni talab qiladi. Dastlabki natijalarni tahlil qilar ekanmiz, ikki guruh ishtirokchilarining ko'rsatkichlarida o'ziga xos kuchli statistik ahamiyatli farq mavjudligi ayon bo'ldi ($F=3,421$; $p \leq 0,05$). Otm psixolog mutaxassislarning bir necha bor bu jarayonga bevosita ishtirok etib kelayotganliklari hamda ilmiy tadqiqot to'g'risida tasavvurga ega ekanliklari bois o'rtacha ballni qo'lga kiritishdi ($M_1=7,8$). Maktab amaliyotchi psixologlari ($M_2=4,2$) ham, inspektor psixologlar ($M_3=3,9$) ham bu omil bo'yicha past balni qo'lga kiritishganligi bu borada bilimlarining yetishmasligini ko'rsatdi. Buning sababi oliy ta'limda bakalaviat bosqichida bunday kompetentlikning rivojlanishiga xizmat qiluvchi «Ilmiy tadqiqot metodologiyasi» fanining o'qitilmaganligi bilan izohlanib, ularning fanlararo va sohalararo tushunchalarning aloqadorligini tushuntirish olib borish lozimligini ko'rsatdi (Otm psixolog mutaxassislarda esa magistratura bosqichida ushbu fan o'qitilishi davomida o'rgatilgan).

Kuzatishlarimizdan ma'lumki, so'nggi yillarda sud va tergov faoliyatida ko'ploq sodir bo'lgan holat yoki yani paytdagi vaziyatga e'tibor berilayotganligi, retrospektiv va germeneytik baholashga kam e'tibor qaratilayotganligi qaysidir ma'noda ayrim ishlarning xulosalari sifatiga ta'sir ko'rsatib turibdi. Shuningdek, o'rganilayotgan shaxsni baholashda bir yoqlama yondashish, o'z imkoiyatlari va uning xulqida namoyon bo'lishi masalasida kamchiliklar kuzatilmoqda. Afsuski, har uchala ishtirokchi guruhlarining bu omil bo'yicha natijalari past ekanligini ko'rishimiz mumkin. Bunday holatning yuzaga kelishiga oliy ta'limda aynan ushbu baolash tizimi bo'yicha fan dasturlariga mavzu kiritilmaganligi, qolaversa shxsiy va kasbiy tajribaning yetishmaganligi kabilarga asosiy sabab sifatida qarashimiz mumkin ($M_1=4,8$; $M_2=3,3$; $M_3=4,0$). Sud psixologik ekspertizasida ishtirok etganlar va ishtirok etmaganlarning natijalari o'rtasida ham muayyan kuchsiz statistik farqlar kuzatilganligini ham qayd etib o'tish lozim ($F=1,991$ $p \leq 0,01$).

Kreativ va tanqidiy fikrlash masalasi zamonaviy psixodiagnostikaning asosiy vositasiga aylanib bormoqda. Ayniqsa, yuridik sohada psixologik xizmatni amalga oshirishda aynan ish bilan aloqador bo'lgan barcha axborotlarni sinchiklab o'rganish, o'ziga xos noodatiy fikrlash asosida masalaning chuqur mohiyatini ochish katta mas'uliyat va tajribani talab qiladi.

Ko'pgina vaziyatlarda esa odatiy usullarga asoslanib ish yuritish oson hisoblanganligi uchun ham turli qiyinchiliklarga duch kelishadi va natijada o'rganish iloji yo'qligi haqida dalolatnoma tuzish bilan cheklanishadi. Bu omil bo'yicha qo'lga kiritilgan natijalarni ijobiy deb baholash noto'g'ri bo'lar edi ($M_1=5,1$; $M_2=3,4$; $M_3=4,5$). Haqiqatdan ham ushbu masalaga alohida e'tibor qaratish lozimligi to'grisidagi dastlabki qarashlarimizning asosli ekanligini isbotladi. Statistik farq $F=2,342$; $p \leq 0,01$ ni tashkil qildi. Sud va tergov jarayonida hal qilinishi lozim bo'lgan savollarga yangicha uslublar, xususan, psixodiagnostik vositalarni o'ziga xos tarzda qo'llash, respondentlarning sodir bo'lgan holat (hodisa) to'g'risida yong'on yoki rost ko'rsatuv berayotganligiga aniqlik kiritish, oqibatlari va asoratiga tegishli munosabat bildirishda klassik, zamonaviy tadqiqot usullari bilan bir qatorda vaziyatdan kelib chiqib, masalaga kreativ yondashish adolatni qaror topishiga xizmat qiladi.

Demak, yuqoridagilarga asoslanib shuni aytilish mumkinki, sud psixolog eksperti ijtimoiy-psixologik kompetentligiga tayanch kompetensiyalarini faoliyat jarayonida shakllantirilishi kognitiv, emotsional, xulqiy omillarni o'zaro mutanosib ravishda rivojlanishi faoliyat samadorligini ta'minlashda individual va differensial farqlarga bog'liqligi haqidagi g'oyalarimiz o'z tasdig'ini topdi. Bu borada ijtimoiy-psixologik kompetentlik, eng avvalo, kasbiy faoliyat samaradorligini belgilashga va shaxs barkamolligini ta'minlashga xizmat qilishi aniq.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Olimov L.Ya. Psixodiagnostika va psixometrika asoslari. Darslik. "Durdona" nashriyoti. Buxoro. 2021. -B. 747.
2. Olimov L.Ya. Umumiy psixodiagnostika. "Durdona" nashriyoti. Buxoro. 2020. -B. 1103.
3. Olimov L.Ya., Maxmudova Z.M.. Psixodiagnostika va eksperimental psixologiya. o'quv qo'llanma. "Turon zamin ziyo" nashriyoti. T. 2020. -B. 820.
4. Olimov L.Ya., Nazarov A.M.. Xulqi o'g'ishgan bolalar psixologiyasi. O'quv qo'llanma. "Tafakkur avlodi" nashriyoti. Buxoro. 2020. -B. 490.
5. Olimov L.Ya., Bahronova M.O'. O'smirlar ma'naviyatini shakllantirishning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari. Science and education. Scientific journal. Volume 3, issue 3. March 2022 407-413 p.
6. Olimov L.Ya., M.B.Rasulova. O'smir shaxsi shakllanishida ahloqiy normalarning ijtimoiypsixologik ahamiyati. Science and education. Scientific journal. Volume 3, issue 3. March 2022 675-683 p.
7. Olimov L.Ya. Sotsialno-psixologicheskiy podxod k issledovaniyu konfliktov. Vestnik integrativnoy psixologii.(jurnal dlya psixologov). 2019 god, Vipusk 19. 379-381 st.

Olimov Laziz Yarashovich

Psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor

Manzil: O'zbekiston, 200100, Buxoro shahri

azizbekyarasev@mail.ru

ORCID: 0000-0001-9437-9741

SCOPUS ID 57215004089

